

infratuzilmani rivojlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *World Bank. (2022). Financial Inclusion and Development Report. Washington, DC: World Bank.*
2. *Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank.*
3. *International Monetary Fund. (2021). Financial Access Survey: Trends and Developments. Washington, DC: IMF.*
4. *Asian Development Bank. (2019). Gender Equality and Financial Inclusion in Central Asia. Manila: ADB.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). O'zbekiston Respublikasida moliyaviy ommaboplik ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot. Toshkent.*

BARQAROR MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYASI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi, i.f.f.d

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaning iqtisodiy o'sish drayverlarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavflar mazmuni, ularning turlari va baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion faollikni oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *siqtisodiy o'sish, moliyaviy xavf, investitsiya, budjet barqarorligi, kredit xavfi, diversifikatsiya, mintaqaviy rivojlanish.*

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda mintaqalarning barqaror va muvozanatli rivojlanishi milliy iqtisodiyot o'sish sur'atlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakat iqtisodiy salohiyati, avvalo, uning hududlari iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Shu bois mintaqaviy rivojlanish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mintaqaning iqtisodiy o'sish drayverlari sifatida sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, investitsion faollik hamda infratuzilma rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohalarning izchil rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Mintaqaviy iqtisodiy o'sish drayverlarini rivojlantirish jarayoni keng ko'lamli moliyaviy resurslarni jalb etish va ularni samarali boshqarishni talab etadi. Biroq ushbu jarayonda turli moliyaviy xavflar yuzaga kelishi mumkin bo'lib, ular iqtisodiy

barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli moliyaviy xavflarning mazmunini aniqlash va ularni tizimli ravishda baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, investitsion xavf mintaqaviy rivojlanishda asosiy o'rin tutadi. Investitsiya loyihalarining kutilgan daromadni bermasligi, loyihaning amalga oshirish muddati cho'zilishi yoki bozor kon'yunkturasining o'zgarishi natijasida samaradorlikning pasayishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, infratuzilma va sanoat loyihalarida kapital sig'imning yuqoriligi investitsion tavakkalchilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, budjet xavfi ham mintaqaviy moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy budjet daromadlarining yetarli darajada shakllanmasligi yoki xarajatlarning rejalashtirilgan hajmdan ortib ketishi moliyaviy nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Bu esa ijtimoiy dasturlar va investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada iqtisodiy o'sish drayverlari yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaydi.

Kredit xavfi ham iqtisodiy o'sish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi bank tizimi likvidligiga va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat kredit resurslari hajmining qisqarishiga olib kelib, tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini susaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, makroiqtisodiy beqarorlik bilan bog'liq inflyatsion xavf real daromadlarning kamayishiga, ishlab chiqarish xarajatlarning oshishiga va investitsion muhitning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Inflyatsiya darajasining yuqoriligi uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni murakkablashtiradi va iqtisodiy o'sish barqarorligini izdan chiqaradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar kengayib borayotgan sharoitda valyuta xavfi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy valyuta kursining keskin o'zgarishi eksport-import operatsiyalarida, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hamda tashqi qarz majburiyatlarini bajarishda qo'shimcha moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa mintaqaning tashqi iqtisodiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qiladi.

Yuqorida qayd etilgan moliyaviy xavflarni samarali boshqarish ularni ilmiy asosda baholashni talab etadi. Amaliyotda SWOT-tahlil yordamida mintaqaning kuchli va zaif tomonlari hamda tashqi tahdidlar aniqlanadi. Ssenariy tahlili orqali turli iqtisodiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy natijalar prognoz qilinadi. Shuningdek, statistik va ekonometrik modellashtirish usullari xavf ehtimolini miqdoriy baholash imkonini beradi. Moliyaviy resurslarni turli yo'nalishlarga taqsimlashga asoslangan diversifikatsiya mexanizmi esa umumiy tavakkalchilik darajasini kamaytiradi. Bundan tashqari, investitsiya va kredit loyihalarini reyting asosida baholash tizimi orqali saralash moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash bevosita moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va mavjud xavflarni oldindan aniqlab, ularni samarali boshqarish darajasiga bog'liqdir. Iqtisodiy o'sish drayverlarini faol qo'llab-quvvatlash jarayonida investitsion, budjet, kredit, inflyatsion va valyuta xavflarining yuzaga kelishi tabiiy holat bo'lib, ularni inkor etish emas, balki tizimli ravishda baholash va minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xavflarni kompleks va o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish mintaqaviy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshiradi. Xususan, investitsiya loyihalarini puxta iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish, budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, kredit portfelining sifatini nazorat

qilish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Umuman olganda, moliyaviy xavflarni chuqur tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mintaqaning uzoq muddatli, barqaror va sifat jihatdan yuqori iqtisodiy o'sishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu esa nafaqat hududiy darajada, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.*
3. *Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London, 1936.*
4. *Samuelson P., Nordhaus W. Economics. – McGraw-Hill Education, 2010.*
5. *Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2018.*
6. *World Bank. World Development Report. – Washington DC, so'nggi nashr.*

TIJORAT BANKLARIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI

Safarboyev Jasur Safarboy o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. *Hozirgi kunda tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etish jarayoni dunyoning turli mamlakatlarida te'z suratlar bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur mavzu tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu xizmatlarni joriy etishning zarurligi, istiqbollari hamda amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini o'rganishga yo'naltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Islom banki, tijorat banklari, islom krediti, moliya barqarorligi,*

Tadqiqotning Dolzarblik. O'zbekiston aholisining aksariyat qismi musulmon bo'lganligi sababli, xalqaro miqyosda islom bank xizmatlari jadal rivojlanayotgan tendensiyaga aylanganligi, O'zbekistonda ham ushbu xizmatlarni joriy etish zarurati va dolzarbligini belgilaydi. Bundan tashqari, foizli kreditlash amaliyotidan farqli o'laroq, islom bank xizmatlarining insonparvarlik tamoyillari va ijtimoiy adolatli yondashuvlari jamiyatda tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu xizmatlarni joriy etish uchun tegishli huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni yaratish hamda amaliyotga tadbir etish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Tahliliy qism. Islom bank amaliyoti an'anaviy bank amaliyotidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

* **Foizsizlik:** Islom bank amaliyotida foiz olish taqiqlanadi. Buning o'rniga daromad taqsimotiga asoslangan investitsiyalar qo'llaniladi. Foiz matematik termin sifatida qaraladi.